

TALABALAR MALAKA AMALIYOTI BO'YICHA HAMKORLIK

SHARTNOMASI

Toshkent shahri

“25” Iyul 2023 y.

Nizom asosida ish yurituvchi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti (keyingi o'rinlarda “Universitet” deb yuritiladi) rektor v.v.b B.Kulmatov, bir tomondan va Nizom asosida ish yurituvchi Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (keyingi o'rinlarda “Qabul qiluvchi (ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor)” deb yuritiladi) N. Huzar Boqeva, ikkinchi tomonidan, mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. Shartnomaning maqsadi:

1.1. Shartnoma universitetda tahsil olayotgan talabalarining amaliyot o'tashini tashkil etish orqali **Universitet va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi** o'rtasida o'zaro hamkorlik va foydali integratsiyani shakllantirish, unumli mehnat asosida (ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor) uchun malakali kadrlar tayyorlashning ikki tomonlama foydali va samarali tizimini rivojlantirish, amaliyot o'tashni davlat ta'lim standartlari talablari darajasida tashkil etish maqsadida tuzildi.

1.2. Universitet mutaxassislik yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar amaliyotini o'tash uchun qabul qilish majburiyatini oladi.

II. Tomonlarning majburiyatlari:

2.1. Universitet ushbu shartnoma yuzasidan o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi;

2.1.1. Mazkur shartnoma asosida talabalar amaliyot o'tashini tashkil etish bo'yicha rektor buyrug'ini tayyorlash va chiqarish, amaliyot boshlanishidan kamida bir hafta muddat oldin tayyorlash va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanishini, hamda bir nusxasi (ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor)ga taqdim etilishini ta'minlash;

2.1.2. Amaliyot o'taydigan talabalar va ularga birlashtirilgan kafedra bo'yicha amaliyot rahbari ro'yxatini amaliyot boshlanishidan kamida uch kun oldin, (ta'lim muassasasi, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor)ga taqdim etish;

2.1.3. Amaliyot o'tkazish jadvali va amaliyot ishchi dasturini ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor) ning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqish, kelishgan holda tasdiqlash, (ta'lim muassasalari, qo'shma korxonalar, tashkilotlar, xususiy sektor)ning takliflariga muvofiq o'quv reja va dasturlarga o'rnatilgan tartibda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish;

2.1.4. Talabalarining amaliyot o'tash joylariga o'z vaqtida yetib borishlarni ta'minlash va ularning amaliyot dasturida nazarda tutilgan ishlarni bajarishlarini nazorat qilib borish;

2.1.5. Talabalarining (ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor) dagi ichki mehnat tartibi, mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilishi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

2.1.6. (Ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor) tomonidan amaliyot o'tayotgan talabalarga ajratiladigan vositalardan amaliyotchi talabalar avaylab-asrab foydalanishlarini ta'minlash;

2.1.7. Talabalar tomonidan amaliyot o'tash tartibi, (ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor)dagi ichki mehnat tarkibi, mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalari buzilishiga yo'l qo'yilgan hollarda ularga nisbatan tegishli intizomiy choralar ko'rish.

2.2. (Ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor) lar ushbu Shartnoma yuzasidan o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

- 2.2.1. Talabalarning amaliyot o'tashini tashkil etish bo'yicha (ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor) buyrug'ini chiqarish;
- 2.2.2. Universitet taqdim etgan ro'yxat asosida talabalarni mazkur shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda amaliyot o'tashlari uchun qabul qilish;
- 2.2.3. Amaliyotga umumiy va bevosita rahbarlik qilish uchun (ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor) xodimi (xodimlari)ni tayinlash;
- 2.2.4. Universitetdan tayinlangan amaliyot rahbari bilan birgaliklar talabalarning (ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor) ning ichki mehnat tartibi, mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilishi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish uchun mas'ul xodim tayinlash;
- 2.2.5. Talabalar tomonidan amaliyot o'tash tartibi, (ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor)dagi ichki mehnat tartibi, mehnat muhofazasi, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalari buzilishiga yo'l qo'yilgan hollarda bu haqida fakultetni habardor qilish;
- 2.2.6. Amaliyot o'tayotgan talabalarga (ta'lim muassasalari, korxonalar, tashkilot, xususiy sektor)ning davlat, tijorat va boshqa sirlar mavjud bo'lmagan hujjatlari bilan tanishish uchun imkoniyat yaratib berish;
- 2.2.7. Amaliyot o'tayotgan talabalarni faqat tasdiqlangan amaliyot dasturida nazarda tutilgan ishlarga jalb etish;
- 2.2.8. Amaliyot yakuni bo'yicha amaliyot rahbarlari va talabalar tomonidan hisobotlarni o'rnatilgan tartibda tasdiqlash, talabalarga yozma tavsifnomalar berish.

III. Yakuniy qoidalar:

- 3.1. Mazkur Shartnoma Universitet va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tomonidan imzolangan kundan kuchga kiradi va _____ yilgacha amal qiladi.
- 3.2. Mazkur Shartnoma teng huquqiy kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi va tomonlarda bir nusxadan saqlanadi.
- 3.3. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, uning amal qilishini muddatidan oldin to'xtatish tomonlarning o'zaro yozma kelishuviga asosan amalga oshiriladi.
- 3.4. Shartnoma va universitet hamda amaliyot o'tovchi talabalar o'rtasidagi munosabatlar mazkur shartnoma talablari asosida tartibga solinadi.
- 3.5. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan va tutilmagan holatlar yuzasidan barcha kelishmovchilik hamda nizolar amaldagi qonun hujjatlari talablari asosida hal etiladi.

**O'zbekiston davlat jahon
tillari universiteti rektor v.v.b
Kulmatov Baxrom Guliyamovich**

**Toshkent shahar maktabgacha va
maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i
Husanboyeva Nilufar Qosimboyevna**



“23” 07 2023 y.



“23” 07 2023 y.

Handwritten signature in blue ink.